ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

MAXTUMQULI IJODINING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TADQIQI

Kadirova Zaynura Zaynidinovna
Termiz davlat universitet o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya: maqolada Maxtumquli she’rlari atroflicha tahlil qilinib, uning lisoniy tanlovlari asarlaridagi she’riy va estetik fazilatlarga qanday hissa qo‘shishi yoritilgan. Muallif, shuningdek, Maxtumquli tilining qo‘llanishidagi madaniy-tarixiy ta’sirlarni muhokama qilib, o‘z davrining kengroq ijtimoiy-siyosiy kontekstini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Maxtumquli, o‘zbek tilshunosligi, she’riyat, lingvistik tahlil, fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika, madaniy ta’sirlar.

Har bir adabiyot namoyondalari borki, ularni ijodini tadqiq qilmasdan bo‘lmasa. Chunki ularning har biri o‘z yozish uslubi, o‘z ijod qobiliyatiga ega insonlardir. Ularning ijodini tadqiq qilish bizga ular haqida umumiy ma’lumotlarga ega bo‘lishimizga, ijodkor asarlarini qiyoslab o‘rganishimizga, ijodkor janri,uslubi,so‘z qo‘llash san’ati va asarlari ko‘lamini bilishimizga olib keladi. Shunday ekan, quyida Maxtumquli ijodining o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqi bilan tanishamiz.

Ulug‘turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli 1733-yil Atrak daryosi bo‘yidagi Xojigovshan ovulida tug‘ilgan. Shoirning ilk ustozi Ozodiy taxallusi bilan she’rlar yozgan otasi Davlatmamad edi. Oilada savodini chiqargan shoir Niyozsolih mulla qo‘lida ta’lim ola boshlaydi. Maxtumquli o‘tkir zehni va intiluvchanligi sababli boshqa o‘quvchilardan ajralib turar edi. Keyinchalik shoir o‘qishini Qiziloyoqdagi Idris bobo madrasasida, Xivaning Sherg‘ozixon madrasasida va ma’lum bir vaqt Buxorodagi Ko‘kaldosh madrasasida ham o‘qib, ilmini kamolga yetkazganligi haqida aytib o‘tiladi. Maxtumquli 9 yoshidanoq she’rlar mashq qila boshlaydi. U Afg‘oniston,Eron,Hindiston,Ozarbayjon kabi davlatlarga hamda Samarqand,Toshkent,Turkiston kabi bir qancha shaharlarga sayohat qilib, u joylarning adabiyoti bilan qiziqib ko‘rgan. Bu esa shoirning she’rlarida ushbu mamlakatlarga tegishli joy nomlarining mavjudligi orqali isbotlanadi.Masalan, Mirzo Kenjabekning taxminicha, shoir bir she’rida “Zangi boboni ko‘rsam” deyishiga ko‘ra, u Toshkentga ham kelganligini aytadi. Shoir qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z xalqining g‘amini,ozodligini,doimo gullab yashnashishini birinchi o‘ringa qo‘yib yashagan.

Bu esa uning she’rlarining mavzusida ham sezilib turadi. Masalan, “Turkman binosi”, “Adolat yaxshi” nomli she’rlari orqali ham ko‘plab talqinlarni bilsak, bo‘ladi. Shoir haqida qancha gapirsak ozdir. Chunki shoir ijodining ko‘lami juda ham keng va o‘rnak bo‘la oladigan darajada desak adashmaymiz.

Maxtumquli ijodi lirik she’rlar,liro-epik dostonlar,g‘azal,mumtoz she’riyat yo‘lida bitilgan to‘rtlik,muxammas va xalqona ohanglarda yozilgan she’rlardan iboratdir. Shoir ijodi bilan shug‘ullangan mutaxassislarning fikricha, shoir ijodining umumiy hajmi o‘n ming misradan ortiqroqni tashkil etadi. Hozirgi kunda Maxtumquli asarlari va qo‘shiqlari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular o‘zbek olimlari va boshqa millat vakillari tomonidan ham o‘rganilib kelinmoqda.

Shoir barcha turkiy xalqlar qatori, o‘zbek xalqining ham o‘z shoiriga aylanib ketgan. Chunki shoir she’rlari xalqimiz orasida asrlar davomida mashhur bo‘lganligi hech kimga sir emas. Bu esa o‘z navbatida shoir she’riyatining yuksak darajada ekanligidan ham dalolat beradi. Asarlarining

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

qo‘lyozmalari keng tarqalib, toshbosmada Toshkent va Xiva shaharlarida bir necha bor nashr qilingan bo‘lib, Toshkentda chiqadigan “Turkiston viloyatining gazeti” da e’lon ham qilingan. Hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Maxtumquli she’rlarini o‘z ichiga olgan 5ta qo‘lyozma saqlanib kelinmoqda.

Ustoz adabiyotshunoslar G‘aybulla Salomov, Rahmatulla Barakayev, Masharif Saparovlar shoir asarlari o‘zbekcha tarjimasi yuzasidan tadqiqot olib borganlar. Bulardan keyin esa Oxunjon Sobirov, Mamatqul Jo‘rayevlar Maxtumquli va o‘zbek folklori bilan bog‘liq tadqiqot ishlari olib borib bir qancha maqolalar e’lon qilishgan hamda Ibrohim Haqqul ijodkor she’riyatining mavzu ko‘lami va obrazlar olamini tahlil qilib, Maxtumquli ijodida Ahmad Yassaviyning ta’sirini ayrim joylarda izohlab o‘tadi. Bu kabi tadqiqotlar natijasida o‘zbek kitobxonlari o‘rtasida shoir ijodiga qiziqish yanada ortib ketdi.

Maxtumquli she’rlari o‘zbek olimlari Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Muzaffar Ahmedov, Mirza Kenjabek va boshqalar orqali o‘zbek tiliga tarjima qilinib, turli to‘plam va darsliklarga kiritilgan.Og‘ir mustamlaka zamonlarida Maxtumquli she’riyatini takror va takror o‘zbek kitobxonlariga taqdim etgan tarjimon Jumaniyoz Sharipov shoir ijodiga qo‘l urayotgan tarjimonlarning hammasiga haqli ustozdir. U Maxtumqulining uch yuzi o‘n to‘rtta she’rini tarjima qilib, 1958-yilda “Tanlangan asarlar” nomi ostida chop ettirgan edi.Bu kitobga sharqshunos Ye.Bertels yozgan so‘zboshi va professor G.Choriyev qalamiga mansub “Maxtumquli” nomli portret xarakteridagi katta maqola kiritilgan. O‘zbek o‘quvchilari istagiga binoan bu kitob yana 1960 va 1963-yillarda tahrirlangan holda qayta nashr etildi. “Maxtumquli she’riyatidan” nomli shoir she’rlari to‘plami esa 1976-yil 150 ming nusxada chop etildi.

Mustaqillik yillarida Maxtumquli ijodining yangi tarjimalari paydo bo‘la boshladi.Shoir va tarjimon Muzaffar Ahmad shoirning yetmishga yaqin she’rlarini tarjima qilib, 1955-yili “Saylanma” nomida nashr qildirdi. Bundan tashqari tarjimon Olim To‘rayev qardosh xalq ijodkorining qirq beshta yangi she’rlarini o‘zbekchaga o‘girib, “Yor, jamoling ko‘rgali” nomli kitob e’lon qildi. Mirzo Kenjabek shoirning ilgari hukmron mafkura yo‘l qo‘ymagan diniy mazmundagi she’rlarini o‘zbekchaga tarjima qilib, “Saylanma” deb ataydi va unda o‘zining “Maxtumquli –valiy shoir” degan maqolasini ham kiritadi. Shu bilan birga Muhammad Ali, Oxunjon Safarov, Nosir Muhammadlarning tarjimalari hamda Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, Rahmonqul Orzibekov, Qobil Tohirov, Rahmatulla Inog‘omov, Baxtiyor Nazarov,Najmiddin Komilov kabi adabiyotimiz darg‘alari shoir ijodini o‘zbek-turkman aloqalari nuqtayi nazaridan o‘rganishgan. Bu esa o‘zbek xalqiga shoir ijodidan bahramand bo‘lish imkoniyatini yaratdi. Bundan tashqari S.Erkinov, K.Toxirov, K.Quronboyev, B.Karimovlar ma’lum darajada shoir ijodi xususida tadqiqotlar olib borgan. O‘zbek tilshunosi A.Boboyev shoirning 700 ga yaqin lirik asarlari bizgacha yetib kelganligi haqida ma’lumot beradi. O‘zbek olimasi S.Shukrullayeva esa Sharqshunoslik institutidagi 1997-raqamli qo‘lyozmada shoirning 900 dan ortiq she’r-u g‘azallari mavjudligini aytib o‘tadi.

Olim Mirzo Kenjabek shoir haqida shunday deydi:”Maxtumquli turkman she’riyatida shakl va mazmun novatori bo‘lib qoldi. U g‘azalchilikni har tomonlama mukammallashtirdi, g‘azalda ishq-muhabbatni ijtimoiy mavzu bilan bog‘lab rivojlantirdi.Maxtumquli she’rlarining vazni ravon,o‘ynoqi tili esa juda sodda bo‘lganligidan xalq orasida tez tarqaldi, kuyga solinib aytiladigan bo‘ldi”.

Xalqimiz orasida hozirgacha ham shoirning “Namasan”, “Etmasin”, “Oshiq bo‘lmisham”, “Aylar” va boshqa bir qancha qo‘shiqlari sevib tinglanib kelinadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Shoir qo‘shiqlarining jozibadorligi hech qachon insonni o‘zidan bezdirib qo‘ymaydi. Bu ham ijodkorning bir yutug‘idir.

Maxtumquli ijodining tadqiqi borasida shuni aytib o‘tish kerakki, surxondaryolik Shayx Abdulmo‘min va Jumanazar Zulpiyevlarning ham tarjimonlar qatorida katta o‘rni bor. Chunki ikkalasi ham o‘ttiz besh yildan beri shoir she’rlarini o‘zbekchaga o‘girib keladi. Masalan, ijodkorlar “Kamalak” nashriyoti orqali “Bu naqldir…”(1991), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamg‘armasi orqali esa “Maxtumquli she’rlari”(2003) nomi bilan tarjimalarini chop etishgan. 2008-yilda hamkorlikda “O‘zbekiston” nashriyotida “Saylanma” nomli kitobimi besh ming nusxada nashrdan chiqardilar. Bu ko‘lamdagi tadqiqot ishlarini olib borish ham ko‘plab qiyinchiliklar orqasidan shu darajaga yetib kelganligini hech kim inkor eta olmaydi.

Hamidulla Xasanov shunday yozadi:”Maxtumquli Firog‘iy nihoyatda zo‘r, ta’sirli, xalqqa yoqadigan, turkmanga ham, o‘zbekka ham o‘z tilidek tushuniladigan she’rlari bilan butun Sharqqa mashhurdir. Uning asarlarini Suriyada ham, Iroqda ham, Turkiya va Eronda ham, Afg‘oniston va Arabistonda ham turkmanlar faxr bilan kuylaydilar. Afg‘onistonda bir keksa turkman baxshisi borligini eshitdim, u Maxtumquli she’rlarini mahorat bilan ijro etishda nom chiqargani uchun o‘zini “Maxtumchi” der ekan”.

Maxtumquli ijodining o‘zbek adabiyotidagi tadqiqi to‘g‘risida yana qancha gapirsak ham kamdir. Bunday tadqiqotlar qatorida O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrida 2017-yil 19-may kuni turkman shoiri Maxtumquli haykali ochilganligi va shu munosabat bilan haykal joylashgan ko‘chaga Maxtumquli nomi berilganligi o‘zbek xalqining shoir ijodiga bo‘lgan e’tibori desak to‘g‘ri bo‘ladi, menimcha. Yaqin o‘tgan kunlar ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori yana bir bor o‘zbek va turkman xalqlari ma’rifatidagi mustahkam rishtalarning yorqin namunasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Maxtumquli ijodining ko‘lami va mavzu qamrovi kengligi hamda xalq hayotini aks ettirishi, qo‘shni xalqlar bilan aloqasi uning ijodini yanada yuksak darajada bo‘lishiga olib kelmoqda. Buni esa yuqoridagi misollar orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan har bir xalq adabiyot va madaniyatlar almashinuvi orqali bir-biriga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bular esa xalqlar o‘rtasidagi rishtalarni ma’lum darajada yanada mustahkam bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov M. Makhtumkuli divani: falsafa, estetika, o'zbek adabiylari. Tashkent: Yosh gvardiya. 2005-yil.
2. Allayarov O. Makhtumkuli divani: falsafa, ijodiyat, poetika. Tashkent: Adolat. 2015-yil
3. Арипов Б. Махтумқули девони ва фалсафа. Ташкент: Ғафур Ғ'улом. 2008 йил.
4. Қуромбоев К. Ўзбек-туркман адабий алоқалари. Т. 1978.
5. Қуронбоев К. Махтумқули шеърияти. Ўзбекистонда.Т.1978.
6. Махтумқули. Дунё ўтиб борадур. “Шарқ” нашриёти.Т.2007.
7. Махтумқули. Сайланма. Ёзувчи нашриёти. 1995.